

KREDITLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Xolikov Shaxzod Dilshod o'g'li

Bank moliya akaedemiyasi magistranti

xsh_bfa@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining kreditlaridan samarali foydalanish orqali sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali aholini kambag'alchilikdan chiqarish yo'llarini o'rganishga qaratilgan bo'lib banklarning kreditlardan foydalangan holda sanoat korxonalarini rivojlantirish yo'llarini oshirishga mavzusi to'liq bayon qilib berilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi sanoatning iqtisodiyotdagi o'rni, bank kreditlarining sanoat moliyalashuvi jarayonidagi ahamiyati va samarali kreditlash tizimining hozirgi holati bilan bog'liq dolzarb masalalarni aniqlashdan iboratdir.

Annotation: This article is aimed at studying ways to lift the population out of poverty through the development of industrial enterprises through the effective use of commercial bank loans. The topic of improving the development of industrial enterprises using bank loans is fully described. The main purpose of the study is to identify current issues related to the role of industry in the economy, the importance of bank loans in the process of industrial financing, and the current state of the effective lending system.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, kreditlash, sanoat korxonalari, moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanish, risk boshqaruvi, innovatsion yechimlar.

Keywords: Commercial banks, lending, industrial enterprises, financing, economic development, risk management, innovative solutions.

Bugungi kunda korxonalarda kapital qo'yilmalardan foydalanish asosida korxonalarni rivojlantirish va raqamlashtirish iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Turli mulkchilik shakllari faoliyat yuritayotgan sharoitda bank, moliya sohalarini barqaror rivojlantirish bevosita mahsulot ishlab chiqarishni va mehnat munosabatlarini bozor talablariga mos ravishda tashkil etishni taqozo qiladi. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarda raqamlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, barcha turdagi resurslardan samarali

foydalanishga va mehnat unumdorligini oshirishda mamlakatimizdagi tijorat banklarining faoliyati bilan ham bevosita bog'liqdir. Lekin, hozirda sarflangan mehnat va moddiy resurslar hisobiga yetishtirilayotgan asosiy turdagi mahsulotlarni yetishtirish tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash imkonini bermayotir. Bundan tashqari tarmoqlarda tijorat banklari tomonidan yo'naltirilgan investitsiyalardan maqsadli foydalanmaslik, loyihalashtirishning yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi, investitsiyalardan samarali foydalanish madaniyatining pastligi yuqori mehnat unumdorligiga erishish imkonini cheklamoqda. Shu nuqtai – nazardan mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida turli xo'jalik shakllarida faoliyat yuritayotgan korxonalarda tijorat banklari investitsiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy – amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.


O'zbekistonda 56,3 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 10,8 mingtasi yoki 19,2% qismi Toshkent shahriga, 6,3 mingtasi (11,2%) Toshkent viloyatiga, 5,7 mingtasi (10,1%) Farg'ona viloyatiga, 4,8 mingtasi (8,5%) Samarqand viloyatiga va 4,4 mingtasi (7,8%) Andijon viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi Navoiy viloyatida (11 985,9 ming so'm), Toshkent shahrida (3 306,0 ming so'm) hamda Toshkent viloyatida (2 673,7 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (1 499,8 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 44,1 trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,1% ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar oyida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Toshkent shahri (18,2 %), Navoiy viloyati (23,3 %), Toshkent viloyati (14,8 %), Andijon viloyati (6,0 %), Farg'ona viloyati (4,8 %) hamda Samarqand viloyati (4,6 %) hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI Namangan viloyati (110,8 %), Xorazm viloyatida (110,7 %), Navoiy viloyatida (110,3 %), shuningdek, Toshkent shahrida (110,2 %) kuzatilgan.

2020-2024 yillardagi sanoat korxonalari soni va sanoat ishlab chiqarish nisbatini infografikada



Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari.

O'zbekistonda 2024-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 885 trillion so'mdan oshdi.

Bu ko'rsatkich ketma-ket 5-yildirki o'sishda davom etmoqda, biroq sanoat korxonalari soni 2023-yilning shu davriga nisbatan kamaygan, deb xabar berdi O'zbekiston Statistika agentligi 2020-2024 yillardagi sanoat korxonalari soni va sanoat ishlab chiqarish nisbatini infografikada ko'rishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "140 ta ilg'or sanoat korxonasi" dasturini amalga oshirish va "sanoat ipotekasi" tizimini joriy qilishga doir chora-tadbirlar to'g'risida so'z boshlasak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgust kuni tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, xususan, hududlarda import o'rnini bosuvchi, eksportbop va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan yirik sanoat loyihalarini amalga oshirishni yanada rag'batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: O'zbekiston

Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasining sanoat sohalarida “140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanganligi;

“140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturiga kiritilgan tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada yillik 4 foiz, milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada 10 yil muddatgacha kredit mablag‘lari ajratilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan yirik sanoat loyihalarini tadbirkorlik subyektlariga ochiq tanlov asosida taklif qilishga mo‘ljallangan Elektron platforma (keyingi o‘rinlarda — platforma) yaratilganligi va ishga tushirilganligi ma’lum etilgan.

5 jadval “140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturi doirasida tadbirkorlik subyektlariga ochiq tanlov asosida taklif qilinadigan yirik sanoat loyihalarining

TAQSIMOTI

T/r	Sanoat yo‘nalishlari	Loyihalar soni
1.	Elektrotexnika	20
2.	To‘qimachilik	20
3.	Charm-poyabzal	10
4.	Mashinasozlik	10
5.	Zargarlik	10
6.	Qurilish materiallari	20
7.	Mebelsozlik	10
8.	Polimer, kimyo	20
9.	Oziq-ovqat	20
Jami		140

1 jadval

“140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturi doirasida yirik sanoat loyihalarini amalga oshiruvchi tashabbuskor tadbirkorlarni ochiq tanlov asosida tanlab olish va moliyalashtirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	Tashabbuskor	Dastur doirasida tanlov e'lon qilingan loyihalarga www.loyiha.miit.uz elektron platformasi orqali takliflarni yuborish.	Zaruratga ko'ra
2-bosqich	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi	Platforma orqali kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish hamda taqqoslash va tahliliy materiallarni Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasiga (keyingi o'rinlarda — Hukumat komissiyasi) kiritish.	Har oyning o'ninchi sanasiga
3-bosqich	Hukumat komissiyasi	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan kiritilgan takliflarni ko'rib chiqish va tanlov g'oliblarini aniqlash bo'yicha Hukumat	Besh ish kunida

		komissiyasining qarorini qabul qilish.	
4-bosqich	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi	Tanlov g'oliblarini www.loyiha.miit.uz elektron platformasida e'lon qilish va loyiha g'olibi bilan investitsiya shartnomasini imzolash.	Besh ish kunida
5-bosqich	Tashabbuskor	Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish uchun "Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKga kiritish.	Ikki oy muddatda
6-bosqich	"Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUK	Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslarini ekspertizadan o'tkazish hamda ijobiy xulosa yoki e'tirozlar berish.	O'n besh ish kunida
7-bosqich	Tashabbuskor	Ijobiy xulosa olingan loyiha bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslari bilan birga tijorat bankiga Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan	Besh ish kunida

		kredit olish uchun murojaat qilish.	
8-bosqich	Tijorat banki	Loyiha hujjatlarini o'rganib chiqish hamda Sanoatni rivojlantirish jamg'armasiga resurs ajratish haqida talabnoma kiritish.	O'n besh ish kunida
9-bosqich	Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi	Tijorat bankining talabnomasiga asosan resurs ajratish.	Ikki ish kunida
10-bosqich	Tijorat banki	Loyihani moliyalashtirish uchun kredit ajratish.	Ikki ish kunida
11-bosqich	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi	Loyihalarning amalga oshirilishi bo'yicha monitoring yuritish.	Loyihani amalga oshirish davomida

O'zbekistonda eksport hajmini oshirishda sanoat korxonalarini rivojlantirish uchun juda ham ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, hukumat qarorlari qabul qilingan. 2021 yil 30 martda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida eksportni moliyaviy qo'llabquvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 167-sonli Qarori, respublikamizning eksport salohiyatini oshirish, eksportchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, milliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish, shuningdek, tadbirkorlarning muammo va takliflarini bevosita o'rganish hamda tadbirkorlikni kelgusida

rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha 2021 yil 20 avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2021 yil 7 senbyarda qabul qilingan "Eksportchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF6306-sonli Farmoni shular jumlasidandir. Buni Buxoro viloyati misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, Buxoro viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning "o'sish nuqtalari"ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida 2022 yil 27 aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026 yillarda Buxoro viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 215-sonli Qarori qabul qilingan. Ushbu qarorda Buxoro viloyatida 2022-2026 yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,4 baravar, sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 baravarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,2 baravar, xizmatlar hajmini 3,1 baravar hamda qurilish ishlari hajmini 1,5 baravarga oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari tasdiqlangan. Bugungi kunda respublikada 98,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 16,8 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,0 % i) Toshkent shahriga, 11,1 mingtasi (11,2 %) Farg'ona viloyatiga, 10,0 ming tasi (10,1 %) Toshkent viloyatiga, 9,9 mingtasi (10,0 %) Andijon viloyatiga va 8,9 mingtasi (9,0 %) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

Tijorat banklari sifatli kredit portfelini shakllantirish uchun avvalambor kreditlash jarayonini to'g'rivasiyatli olib borishi zarur. Ushbu tamoyillar asosida kredit olmoqchi bo'lgan mijozlarga kredit paketitayorlanadi va kredit olish mumkin yoki mumkin emasligi tahlil qilinadi. Yaxlit olib qaralganda, kredit siyosati tijorat bankining yagona kreditlash tizimini vujudga keltiradi desak xato bo'lmaydi. Chunki busiyosat bank o'sgan sari uni yangidan tashkil etiladigan bo'linma va filiallariga bank faoliyatini, kreditvakolatlarini, burchlarini taqsimotida muhim ahamiyat kasb etadi. Aniq bir siyosatdan

kelibchiqqanholda ishlab chiqilgan kredit siyosati bank krediti madaniyatini umumiy tarakkiyotini o'zagini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari kredit portfelini mijozlarni tarmoq xususiyatigako'radiversifikatsiya qilish bo'yicha me'yoriy mezon qilib 25% olingan. Ya'ni, tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqda to'planib qolishi mumkin emas. Respublikamizning ayrim yirik banklarida ushbu ko'rsatkichning darajasi 50 foizdan yuqoridir. Xalqaro bank amaliyotida kredit portfelini diversifikatsiya qilishni asosiy yo'nalishlari sifatidaquyidagilardan foydalanilmoqda:

❖ bank kredit qo'yilmalarini iqtisodiyotni turli tarmoqlari bo'yicha diversifikatsiyalash

❖ bank kredit qo'yilmalarini mijozlar kesimida diversifikatsiyalash.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- diversifikatsiyalash usuli;
- kreditlarni restruktizatsiyalash usuli;
- zahiralar shakllantirish usuli;
- muddati o'tgan kreditlar va foizlarni balansdan chiqarish usuli.

Diversifikatsiya qilinmagan kredit portfeli doimo yuqori riskli bo'lib boradi. Bankningkreditportfelini diversifikatsiya qilish yo'li bilan kredit portfelini boshqarish bankning strategikrejalashtirishjarayoni bilan uzluksiz bog'liqdir. Samarali kredit portfelini tarkib toptirishda tijorat banki resurslarni joylashtirish sohasidagi uch tamuhim yo'nalishning oqilona nisbatiga erishishga harakat qilishi lozim:

1. Investorlarni qimmatli qog'ozlarga mablag' kiritishini ta'minlash resurslarni oqilona joylashtirishningasosiy yo'nalishi bo'lib, milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Resurs joylashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri jismoniy shaxslarni kreditlashdaniborat. Chunki kreditlashning ushbu yo'nalishi nafaqat riskni diversifikatsiya qilish, balki yaxshi daromadko'rish imkoniyatini ham beradi.

3. O'zbekiston Respublikasining istiqbolli korxonalari bilan uzoq muddatli hamkorlikqilishorqaliyuqori dividendli daromadlar olish va ushbu korxonalarni

boshqarishda ishtirok etish. Banklar o'z faoliyatini takomillashtirish, xususan, kredit portfelini sog'lomlashtirish hamaqsadida mijozlarning iste'mol va boshqa ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bank depozitlari hamdasug'urtava kredit depozitlarining mushtarakligini ta'minlovchi yangi moliyaviy mahsulotlarni taqdimetishorqalialaholining jamg'arish va investitsion faolligini rag'batlantirish asosida jismoniy shaxslar bilanishlarnifaollashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini qarz majburiyatlarini emissiya qilish va bank sertifikatlarini chiqarish yo'li orqali jalb etish amaliyotini keng joriy etilmoqda. Bunday amaliyotdan maqsad ushbu resurs turining bank tomonidan jalb qilingan jami mablag'lardagi ulushini oshirishdir. Bankning moliyaviy bozordagi mavqei uning kredit portfelini shakllantirish va uniboshqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 306-sonli ,
2. 2021 yil 7 senbyarda qabul qilingan "Eksportchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF6306-sonli
3. 2023-yil 15-noyabrdagi "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 366-sonli
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 37-sonli qarorlari
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni
6. Abdullaeva SH.Z. va boshq. Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. O'quv qo'llanma.-T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017.- 182 b.
7. Abdullaeva SH. Bank ishi. Darslik.-T.: Toshkent. 2003.-312 b.
8. . Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash. -T.: Moliya. 2002.- 304 b.

9. Abdullaev YO., Qoraliev T., Toshmurodov SH., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma.-T.: IQTISOD-MOLIYA. 2009.– 548 b.
10. Alaverdov A.A. Strategicheskiy menedjment v kommercheskom banke.-M.: Market DS. 2007.-576 s.
11. Liu Xiangfeng // SME Development in China: A Policy Perspective on SME Industrial Clustering. Institute for International Economic Research (IIER), National Development and Reform Commission (NDRC). – Report 2020–5, pp. 37–68
12. <https://www.bankrate.com> – маълумотлари асосида тайёрланди.
13. <https://iz.ru> – маълумотлари асосида тайёрланди.
14. <https://www.norma.uz> – маълумотлари асосида тайёрланди.
15. <https://oz.sputniknews.uz/20240305/ozbekiston-sanoat-korxonalar->